



AFG'ONISTONLIK O'ZBEK SHOIRASI SHAFIQA YORQIN IJODIYOTI

Sanoulloh Ahmadiy

Surxondaryo viloyatidagi Afg'oniston
fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7579168>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg'onistonlik o'zbek shoirasi Shafiqa Yorqinning hayoti va ijod yo'li haqida fikr yuritilgan

Kalit so'z: islomiy fundamentalist, Luya Jirga, ihtimom, devon, ruboiy

Shafiqa Yorqin "Diboj" milodiy 1955 yili ,24-noyabrda Afg'onistonning xush ob-havo va farhangi(an'anaviy) shahri "Saripul"da "Takona Xona" guzarida, "Qozi Xona" mahallasida ziyoli bir oilada tug'iladi. Uning otasi Mirzo Muhammad Qosim Qozizoda "Barq" (1908-1998)yili o'z davrining ilg'or ziyolilaridan biri bo'lib, Saripul shahrining shahrdori. Shafiqa Yorqin boshlang'ich ta'limotini "Mazori Sharif" shahrining "Sulton Roziya" lisasida (umum ta'lim maktabi), o'rta va oliy maktabni Kobul shahrining "Robiayi Balxiy" lisasida o'qib, a'lo daraja bilan tugatdi. U, 1979-yil Kobul universitetining, adabiyot va insoniy bilimlar fakultetining "jurnalistika" bo'limini a'lo daraja bilan tugatdi. O'sha davrning siyosatiga ko'ra, o'z yo'nalishida emas, balki tug'ulgan shahri Saripulning "Nasvon" o'rta maktabiga o'qituvchi qilib tayinlandi. Bir yildan keyin Afg'onistonda yangi tizim o'rnatilgani bois, o'z yo'nalishiga qaytib, Afg'oniston radio va televideniyesi, hunar va adabiyot bo'limida "adabiyot" bo'limi direktor, hamda prodyuser, yozuvchi va notiq sifatida ish boshladi.

Shafiqa Yorqin 1981-yili Afg'oniston fanlar akademiyasi, o'zbek tili va adabiyoti bo'limida "ilmiy xodim" sifatida ishga kirdi. Bu voqia uning hayotidagi eng katta va ijobiy o'zgarish nuqtasi deb, sanaladi, chunki u shu zamondan boshlab, butun vaqti va kuch-quvvatini o'zbek tili va adabiyoti sohasida tadqiq va tadbiiq qilishga bag'ishladi. Bir-ikki yil ichida turli milliy va xalqaro ilmiy seminarlar va konferensiyalarda o'zining ilmiy maqolalari bilan ishtirok etgani, "Zahiriddin Muhammad Bobur devoni", "Boburga armug'on" va ustoz Azimiyning "Nisob ul-sabion" kitoblarini muqaddima va lug'atnomalari bilan tayyorlab chop etgani, turli forscha va o'zbekcha ilmiy-adabiy maqolalarining Afg'onistonda chob bo'ladigan turli ilmiy va adabiy jurnallarda chop etilgani uning ilmiy salohiyati bor ekanligini ilmiy doiralarda va idoralar, ayniqsa Afg'oniston fanlar akademiyasi idoralaridan birida rahbarlik maqomiga ko'tarildi va uzoq muddat bu ikki ish bilan mashg'ul bo'ldi. Keyinroq Afg'oniston milliy kengashining "Sano" majlisida "nashriyot" bosh direktori sifatida tayinlandi. Shu davrda radio va televideniya "Sadoi sano" nomli



alohida -alohida dasturlarini ochib, prodyuserlik va notiqlik qildi. Undan oldinroq "Sano" majlisining nashr qilinmay qolgan bir yillik sonlariga mas'ul bo'lib muharirlik qildi va hammasini oz muddatda tayyorlab nashrdan chiqardi bu ish "Sano" majlisining navbatidagi yig'ilishida senatorlar tomonidan yuksak baholanib, mukofotga sazovor deb topildi, natijada unga va uning rahnamoligida ishlagan nashryot bo'limi a'zolariga taqdirnomalar va bir oydan uch oygacha bo'lgan rag'bat mukofotlar berildi.

1991-yili Afg'onistonda Islomiy davlat tashkil bo'lganidan keyin, urushlar tufayli Kobulda yasholmay Javzjonga ko'chdi va shu viloyatning madaniyat maslahatchisi va keyinroq esa, ayollar kengashini tashkil etib, shu kengashning raisi sifatida ishladi. Ozroq muddat Afg'oniston milliy-Islomiy harakati, xotin-qizlar ishlari bo'yicha o'rinbosar bo'lib tayinlandi. 1997-yil Tolibonlar harakati Afg'oniston Shimolini egallab olgandan keyin, O'zbekistonga muhojir bo'lib keldi va O'zbekiston fanlar akademiyasida katta ilmiy xodim bo'lib ishga kirdi. 1999-yil "Komronmirzoning hayoti va ijodi" haqida yozgan ilmiy tadqiqotini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari PHD diplomini olishga erishdi. 2001-yili Afg'onistonda "oz muddatga hukumat" barqaror bo'lganidan keyin, davlat taqozosiga binoan xotin-qizlar ishlari qo'mitasi vazifasini bajardi. 2002-yil favqulotda Luya jirgada Saripul xalqi tomonidan advokat bo'lib saylandi, ammo "Intiqoli islomiy fundamitalist" qudratli guruhlar bilan chiqisha olmay, Toshkentga qaytdi va yana O'zbekiston fanlar akademiyasida ishladi.

2005-yili ta'lim vazirligi talabiga binoan yana Kobulga qaytib, ,3-tillar bo'limi ilmiy kengashi a'zosi va o'quv rejasi bo'yicha maslahatchi sifatida ishga kirdi. Bir yildan keyin "xos va maktabdan oldingi ta'lim" raisi, shuningdek ta'lim vazirligiga qarashli "tarbiya" jurnalining asoschisi, mas'ul menejeri va 2008-yildan 2012-yilgacha ilmiy ta'lim kengashi raisi sifatida ishladi. U hozir turmush o'rtog'i Muhammad Halim Yorqin bilan Shvetsiyada yashamoqda. U 40 ga yaqin bosma (qo'lyozma) va 20 ta bosilmagan kitob, risolalar va 100 dan ko'proq ilmiy va adabiy maqolalar, she'rlar va qisqa hikoyalar muallifidir. Quyida uning bosilgan va chop etilgan asarlari ro'yxati berilgan:

1. Boburga armug'on, (tadvin, muqaddima va ihtimom), Kobul 1983.
2. Ustoz M.A. Azimiyning "Nisob ul-sabion" asari (muqaddima, lug'at va ihtimom), Kobul 1983.
3. Nodira va she'rhoyi u (Nodira va uning she'rlari), (muqaddima va ihtimom), Kobul 1989.
4. Simoyi Mir Alisher Navoiy (Mir Alisher Navoiyning simosi), (M.H.Yorqin bilan birga), Kobul 1991.



5. Turkiy otlar soʻzligi (M.H.Yorqin bilan birga), Javzijon 1997 (erkaklar otlari chop boʻlgan, ammo Tolibonlar kelishi bilan-oq qolgan qismi chopdan qoldirilgan).
6. Shoh Gʻarib Mirzo Gʻaribiyning devoni, Toshkent 2001.
7. "Boburnoma"ning Afgʻoniston boʻlimi dari tajimasi, Afgʻoniston fan akademiyasi nashriyoti, Kobul 1386 hijri (2007 melodi).
8. "Boburnoma", Afgʻoniston boʻlimi oʻzbekcha matni, Afgʻoniston fan akademiyasi nashriyoti, Kobul: 1986 hijri (2007 milodi).
9. Bobur devoni "Kobul nashriga", Toshkent 2004.
10. Farhang oʻzbekiy ba forsiy, (oʻzbek madaniyati fors tilida), (38 ming izohli lugʻat), M.H.Yorqin bilan, suxan nashriyoti, Tehron 1386 hijri (2007 milodi).
11. Mavlono ruboiylari, (manzum tarjima), Kobul: 1386 hijri (2007 milodi).
12. Ni tilmoji (masnaviy maʼnaviy saylanma hikoyalarning nasri tarjimasi), qalam anjumani nashriyoti, Kobul: 1386 hijri (2007 milodi).
13. Yana koʻrishguncha (qissa hikoyalar toʻplami) qalam anjumani nashriyoti, Kobul: 1386 hijri (2007 milodi).
14. Darborai zabon, xat va farhamg navisi (Turkiy-oʻzbekiy tili, yozuvi va leksikografiyasi haqida), M.H.Yorqin bilan, Kobul: 1385 hijri (2006 milodi).
15. Olisdan bir ses (oʻzbek tilidagi sheʼrlar toʻplami), Kobul: 1388 hijri.
16. Uygʻoq tushlar (oʻzbek tilidagi ruboiylar va turli janrdagi sheʼrlar toʻplami), kobul: 1389 hijri.
17. Epik tolalari, (Afgʻoniston oʻzbek ayol shoirlari), Kobul: 1389 hijri.
18. Daryo dar gavhar (Marvariddagi dengiz), (Zahiriddin Muhammad Boburning toʻlqin tanqidiy matni), (Dutur Shfiqa Yorqinning muqaddima, muqobila va tashihisi bilan), Bayhaqiy kitob nashriyoti, Ahmad bosmaxonasi, Kobul: 1387 hijri.
19. Boburnoma, (Voqiot Kobul), (Kobul voqealari), dari tarjima, muqaddima va roʻyxat bilan, 2-chop, tashqi ishlar vazirligi nashri, Eʼtison bosmaxonasi, Kobul: 1388 hijri.
20. Sharmi Shabnam (dari tilidagi sheʼrlar toʻplami), (Shudringdan uyat), xuroson nashri, Kobul: 1389 hijri.
21. Riho dar bod (Shamolga tushing), (dari tilidagi sheʼrlar toʻplami), xuroson nashri, Kobul: 1389 hijri.
22. Lahza hoyi beshitob, (Shoshilinch daqiqalar), (dari tilidagi sheʼrlar toʻplami), Kobul: 1389 hijri.
23. Az tabori bahoriy digar, (Yana bir bahor naslidan), (dari tilidagi sheʼrlar toʻplami), Kobul: 1389 hijri.



24. Ko`ch farishtaho (Farishtalar ko`chishi), (dari ruboiylari to`plami), xuroson nashri, Kobul: 1389 hijri). Ko`ch xurshed (Quyosh ko`chishi), (5 to`plamdan saylanma she`lar to`plami), forsi tili va adabiyotini tarqatuvchi shurosi (kengashi nashriyoti), Tehron: 1391 hijri.
25. Qayta tug`ilgan pari kuylaydi (Furug` Faruzzod saylanma she`rlaridan she`ri tarjimalari), Afg`oniston qalam uyushmasi nashri, Kobul: 1388 hijri.
26. Epik qanot qaldirg`och, (bo`lalar uchun she`rlar to`plami), Bayhaqiy kitob nashriyoti, Ozodlik bosmaxonasi, Kobul: 2011 milodi.
27. Komron Mizoning hayoti va ijodi, (forscha va o`zbekcha devoni bilan), Kobul: 1388 hijri.
28. Shoh G`arib Mirzo G`aribiy, (forcha va o`zbekcha devoni bilan), Kobul: 1388 Shafiqa yorqin Afg`oniston, Birlashgan Qirollik, Germaniya, Avstriya, Norvegiya, Italiya, Japoniya, Hindiston, Pokiston, Lordaniya, Tukiya, Eron, O`zbekiston, Tojikiston, Qozog`iston va Rassiyaning shaharlariga doir bo`lgan 30 dan ko`proq milliy va xalqaro seminarlar va konferensiyalarda maqolalar va bayonotlari bilan bir necha martadan qatnashgan. 1996-yil Shibirg`on shahrida Afg`onistonning yeti Shimoli viloyatlaridan taklif bo`lib kelgan 500 ga yaqin ayollar va erkaklar hamda xalqaro va birlashgan millatlar tashkilotining ayrim idoralari a`zolari ishtirokida "Afg`onistonda ayollar haq-huquqi va roli" nomli uch kunlik konferensiyasini tashkil etdi. 2000-yil Afg`oniston masalalari bo`yicha tashkil topgan "bn" konferensiyasidan bir oy oldin Toshkentdagi Eron, Afg`oniston elchixonalari va birlashgan millatlar tashkilotining muhojirlar idorasi UNHCR hamkorligida 200 ga yaqin Afg`onistonlik, Eronlik va O`zbekistonlik ayollar ishtirokida Toshkent shahrida "Afg`oniston ayollari va bolalarining huquqlari milliy, xalqaro islomiy idoralarining roli" nomli bir kunlik ilmiy-siyosiy konferensiyasini tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [کتابخانه آنلاین یارقین - یارقین آنلاین کتابخانه](#)
- [سی کتابخانه آنلاین یارقین \(Shafiqa Yorqinning onlayn kutubxonasi\)](#)
- [Visit www.yarqin.info](http://www.yarqin.info)
- [فردا Farda - شفیقه یارقین « دیاج »: شاعره ذواللسانین](#)
- <http://www.farda.org> › articles
- [... شناسنامه مختصر شاعران معاصر افغانستان/ دکتور شفیقه](#)
- <https://www.oqabnews.com> ›
- www.youtube.com › watch